

Y. V. GYOTE ASARLARIDA ISLOM SIVILIZATSIYASI

Alisher Yo'ldoshevich MAHMUDOV

Katta o'qituvchisi, PhD
Qarshi davlat universiteti
Qarshi, O'zbekiston

ИСЛАМСКАЯ ЦИВИЛИЗАЦИЯ В ТВОРЧЕСТВЕ И. В. ГЁТЕ

Алишер Юлдошевич МАХМУДОВ

Старший преподаватель, PhD
Каршинский государственный университет
Карши, Узбекистан

ISLAMIC CIVILIZATION IN THE WORKS OF J. V. GOETHE

Alisher Yuldoshevich MAHMUDOV

Senior Lecturer, PhD
Karshi State University
Karshi, Uzbekistan alischer-2473@mail.ru

UDC (УДК, УДК): 830:808.03

**For citation (iqtibos keltirish uchun,
для цитирования):**

Mahmudov A.Y. Y.V.Gyote asarlarida islom
sivilizatsiyasi // O'zbekistonda xorijiy tillar,
2022. — № 3 (44). — B. 124-130.

<https://doi.org/10.36078/1658743911>

Received: March 25, 2022

Accepted: June 17, 2022

Published: June 20, 2022

Copyright © 2022 by author(s) and Scientific
Research Publishing Inc.

This work is licensed under the Creative
Commons Attribution International License
(CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Open Access

Annotatsiya. Maqolada nemis adabiyotining buyuk mutafakkiri Y.V.Gyote asarlarida islom sivilizatsiyasining ifodasi haqida fikr yuritilgan. Unda shoirning islom diniga munosabati ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan shakllanganligi e'tirof etilgan. Muhammad payg'ambar va islom diniga nisbatan Gyote ko'proq o'z shaxsiyati nuqtai nazarida turgan. Shuning natijasida islom haqida u bildirgan fikrlar o'zigacha Olmoniyada mavjud bo'lgan barcha g'ayriodatiy, tor fikr va qarashlardan o'zib ketdi. Islomga nisbatan ijobiy munosabatini Gyote o'zining shaxsiy e'tiqodi va tafakkuri asosiy diniy ta'limotlar bilan mos bo'lgan paytda kashf etdi. Qur'onga bo'lgan qiziqishi tufayli turli suralardan Qur'oni karim haqida xulosa chiqarish bilan kifoyalanmaydi, ko'plab she'r va asarlarida islom va Qur'on izlari saqlanib qolgan. Ular orasida eng mashhur asarlar, shubhasiz, "Faust" va "Sharq G'arb devoni"dir. Shu bilan birga, Gyote dinning o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra diniy bag'rikenglik g'oyalarini qamrab olgan islom diniga alohida e'tibor qaratgan. Gyotening Sharqqa bo'lgan qiziqishi, uning musulmon ekanligiga shubha qilishlariga munosib javob bo'ldi. Bundan tashqari Gyote til va poetikaning kelib chiqishidan ko'ra, islom dini va Sharq sivilizatsiyaga jiddiy e'tibor qaratgan. Uning imkoniyatlaridan biri bu Sharqda Yevropa madaniyatini topish edi. Shu nuqtai nazardan, uning jahon adabiyoti haqidagi konsepsiyasi mustahkam asosga ega bo'lib, undan rivoj topmoqda.

Kalit so'zlar: sivilizatsiya; ma'rifatparvarlik; e'tiqod; tafakkur; diniy ta'limot; Qur'oni karim; sura; sharqona motiv; diniy bag'rikenglik; islom dini.

Аннотация. В статье рассматривается исламская цивилизация в творчестве великого мыслителя немецкой литературы И. В. Гёте. Признается, что отношение поэта к исламу формировалось идеями Просвещения. Гете был больше с точки зрения его личности, чем пророк Мухаммед и ислам. В результате его взгляды на ислам превзошли все неординарные, узкие идеи и

воззрения, существовавшие в Германии сами по себе. Его положительное отношение к исламу было обнаружено в то время, когда его личные убеждения и мышление соответствовали основным религиозным учениям. Благодаря своему интересу к Корану он не только делает выводы о Коране из различных сур, но и во многих его стихах и произведениях сохранились следы ислама и Корана. Самые известные из них, без сомнения, «Фауст» и «Западно-Восточный диван». При этом особое внимание Гёте уделял исламу, воплотившему в своей сущности идеи веротерпимости. Интерес Гёте к Востоку был подходящим ответом на его сомнения о том, что он мусульманин. Более того, Гёте больше сосредоточился на исламе и восточной цивилизации, чем на происхождении языка и поэтики. Одной из его возможностей было найти европейскую культуру на этом Востоке. В этом смысле его концепция мировой литературы имеет прочную основу и развивается из нее.

Ключевые слова: цивилизация; просвещение; вера; созерцание; религиозное учение; Коран; сура; восточный мотив; толерантность; ислам.

Abstract. The article deals with the Islamic civilization in the work of the great thinker of German literature I.W.Goethe. It is recognized that the attitude of the poet to Islam was shaped by the ideas of the Enlightenment. Goethe was more in terms of his personality than the prophet Muhammad and Islam. As a result, his views on Islam surpassed all the extraordinary, narrow ideas and views that existed in Germany on their own. His positive attitude towards Islam was discovered by Goethe at a time when his personal beliefs and thinking were in line with the mainstream religious teachings. Due to his interest in the Qur'an, he not only draws conclusions about the Qur'an from various surahs, but traces of Islam and the Qur'an have been preserved in many of his poems and works. The most famous of them are, without a doubt, "Faust" and the "West-Eastern Divan". At the same time, Goethe paid special attention to the religion of Islam, which embodied in its essence the ideas of religious tolerance. Goethe's interest in the East was a fitting response to his doubts about his being a Muslim. Moreover, Goethe focused more on Islam and Eastern civilization than on the origins of language and poetics. One of his opportunities was to find European culture in this East. In this sense, his concept of world literature has a solid foundation and develops from it.

Keywords: civilization; enlightenment; faith; contemplation; religious doctrine; Koran; sura; oriental motive; tolerance; Islam.

Kirish. Mashhur nemis yozuvchisi Yohann Volfgang Gyote (1749–1832) islom olamida munosib o‘rin egallagan. Biroq u islomga bo‘lgan qiziqishi bilan tanilgan bo‘lsa-da, yozgan ko‘pgina asarlarida Islomdan va ayniqsa, Qur‘ondan olgan ilhomlar bugungi tadqiqotlarda ko‘pincha e‘tibordan chetda qolmoqda. Qolaversa, islom dinining Gyote fikrlari va she‘rlariga ta‘siri ko‘pincha yetarlicha baholanmaydi va mavzu sukut saqlaydi. Bugungi kunda ham bu haqda ko‘p misollarini ko‘rishimiz mumkin bo‘lgan islomshunoslik G‘arbda VII asrga borib taqaladi. Tarixiy manbalarda keltirilishicha, islom dini va payg‘ambar Muhammad alayhissalomni kamsituvchi so‘zlar ishlatilib, g‘animlarga xos munosabat ko‘rsatilgan.

Gyote “Devon”ning nasriy qismida payg‘ambar va shoir o‘rtasidagi farqni muhokama qilib, Muhammad payg‘ambarni roviy roliga tushirish,

unga shoir sifatida munosabatda bo'lishga yo'l qo'ymaslik ba'zan qiyin bo'lishini aniq ko'rsatdi. Gyotening Qur'onni qadrlashi nafaqat tilning jilosi, balki shoirning Qur'onning asosiy ta'limotlarini nasroniylik e'tiqodida topganligi va shu tariqa begona din bilan aloqa o'rnatganligi bilan bog'liq edi.

Nemis adabiyotining buyuk mutafakkiri Yohann Volfgang Gyote haqida fikr yuritilar ekan, aslida shoirning islom diniga munosabati ma'rifatparvarlik g'oyalari bilan shakllanganligini e'tirof etish kerak. Muhammad va islom diniga nisbatan Gyote ko'proq o'z shaxsiyati nuqtai nazarida turdi. Shuning natijasida islom haqida u bildirgan fikrlar o'zigacha Olmoniyada mavjud bo'lgan barcha g'ayriodatiy, tor fikr va qarashlardan o'zib ketdi. Islomga nisbatan ijobiy munosabatini Gyote o'zining shaxsiy e'tiqodi va tafakkuri asosiy diniy ta'limotlar bilan mos bo'lgan paytda kashf etdi. Bunday holat unda chuqur diniy bag'rikenglik, xayrixohlikni uyg'otdi. Natijada, shoir erkin va oshkora jasorat ohangida diniy bag'rikenglik bilan sug'orilgan ulug'vor asarlar yaratishga moyassar bo'ldi (11, 130).

Asosiy qism. Gyote islom va Qur'ondan ilhomlanib yozgan asarlari bilan islom madaniyatini G'arbg'a tanitishga, Sharq va G'arb o'rtasida ko'priq qurishga harakat qildi. Shu sababli uning asarlari musulmonlar orasida qiziqish bilan kutib olindi. Yoshligidan Qur'onga bo'lgan qiziqishi tufayli turli suralardan Qur'oni karim haqida xulosa chiqarish bilan kifoyalanmaydi, ko'plab she'r va asarlarida islom va Qur'on izlari saqlanib qolgan. Ular orasida eng mashhur asarlar, shubhasiz, "Faust" va "Sharq-G'arb devoni"dir. Ammo Gyote Qur'ondan ilhomlangan asarlar yaratgani ma'lum bo'lsa-da, aksariyat tadqiqotlarda xristian *diniga oid qadriyatlarga* va falsafiy unsurlarga ko'proq e'tibor qaratiladi.

Gyotening asarlari barcha mamlakat adabiyoti katta muvaffaqiyatlar bilan kutib olingan bo'lsa-da, ayniqsa shoirning "G'arbu Sharq devoni" birmuncha tortishuvlarga sabab bo'ldi (17, 174). Gyotening zamondoshi adabiyotshunos olim Menselning fikrini misol qilib olish mumkin: "Gyote geniy emas, shunchaki jaydari talant sohibi bo'lib, chet el adiblariga qullarcha ergashib, taqlid qilgan. Uning asarlarini hech qanday siyosiy qimmatini yo'q" (7, 560). Menselning Gyote asarlariga nisbatan salbiy fikrlari asossiz ekanligini tarix ko'rsatdi. Uning ijodi Ikkinchi Uyg'onish davri sifatida Yevropaning barcha madaniy jabhalarida o'z ta'sirini namoyon qildi. Shunday bo'lsa-da, bu ta'sir qisman va ma'lum sohalar bilan cheklanib qoldi. X.G.Shvars ta'kidlaganidek, "Birinchi Uyg'onish davri bilan taqqoslaganda, Gyote asarlaridagi Sharq motivlarining keng ko'lamliligi ko'zga tashlanmaydi. Faqat yunonlar madaniyatiga xos namunalar keng tarqalgan edi" (16, 19). Agar noto'g'ri talqin qilingan bo'lsa ham, Sharqning ifodasi saqlanib qoladi (13, 68). Nemis adabiyotining Sharqqa va uning madaniy merosiga bo'lgan qiziqishi fransuzlarning Sharqni umuman madaniyatni targ'ib qilish, shuningdek, iqtisodiy va geostrategik maqsadlar uchun tarqatishga urinishlariga sabab bo'lmadi. "Gyote G'arbu Sharq devon"ini Sharqqa hayrat bilan qaragan holda yozgan, lekin uning islom diniga munosabati bugungi kunda tez-tez aytilganidan ham muhimroqdir" (8). Uning "Muhammad" asarining loyihasidan voz kechgani bejiz emas. Shu nuqtai nazardan, Gyote Marokashda ham "Devon" muallifi, ham "Sharq olami ishqibozi" sifatida, balki islom va uning payg'ambarlariga kuchli e'tiqodchi sifatida qadrlanadi va qabul qilinadi. Undagi islom diniga bo'lgan kuchli e'tiqodi va diniy bag'rikenglik g'oyalari ustunligi Sharq madaniyati olamini keng ommaga targ'ib qiladi.

Sharqu G'arb ruhi mujassamlashgan Gyotening "Devon"i "ikki madaniyat qonidan paydo bo'lgan farzanddir". Buyuk Gyote qadimgi

Yunoniston, Rumo ilmu fani bilan birga, Sharq madaniyati va adabiyoti yutuqlarini ham tashnalik bilan o'zlashtirgan hamda asarlariga sharqona ruh va she'riyat an'alarini singdirib yuborgan, deb yozadi professor Najmiddin Komilov, Gyote nazdida Sharq adabiyoti va she'riyati, Firdavsiy, Shayx Sa'diy, Hofiz Sheroziy, Jaloliddin Rumi ijodi — "Xizr chashmasi". U hamisha musaffo va ravon, undan hayot nafasi ufurib turadi. Bu ruh va ijod manbai, sevgi va qo'shiq saltanatidir (9, 14).

Y.V.Gyotening "G'arbu Sharq devoni"ning ilmiy-tadqiqot qismida zardushtiylik haqida maxsus bob ajratilgan. Gyote Sharq madaniyati va tarixi, sharqona voqelik, diniy bag'rikenglik haqida so'z yuritib shunday fikrni aytgan: "Chamamda, zoroastr (zardusht) qimmatbaho tabiatdagi e'tiqodni mukammal diniy e'tiqodga aylantiradi". Qadimgi forslar faqat olovga (otashga) sig'inish bilan cheklanib qolmagan, (zardushtiy) tabiatning barcha stixiyalarini (qudratli kuchlarini) aziz, e'zozli deb bilmaganlar. Shu sababli ular suvni, havoni, tuproq — zaminni, tabiatni ifloslantirishni gunoh deb qo'rqr edilar. Fuqarolik fazilatlarini, mehnatni, tozalikni, ehtiyotkorlikni yaxshi ko'rganlar. Shu e'tiqod asosida ular daryoga axlat tashlamagan, kanallar qazib, suv keltirishgan, suvni tejab sarflab, hozirgidan o'n barobar hosil undirganlar. U (zardushtiy) Quyosh kulib boqqan barcha narsalarni shu jumladan tok, uzum novdalarini parvarish qilgan (4, 153–157)

Adabiyotshunos olim va mutaxassislarning "G'arbu Sharq devoni" Qur'oni karim va Hadisi shariflar, Sharq she'riyatining asosi bo'lgan tasavvuf ta'limoti ta'siri hamda Firdavsiy, Anvari, Nizomiy, Rumi, Hofiz Sheroziy, Sa'diy va Jomiy g'azallari talqinida yaratilgani haqidagi fikri mutlaqo asoslidir. Gyote Hofiz she'riyatiga shu qadar berilganki, go'yo Hofiz unga barcha jumboqlarning kaliti bo'lib tuyuladi. Shu ma'noda, Gyotening "Devoni"ni Sharq va G'arbni bog'lab turuvchi adabiy ko'pri yoki sharqshunoslikka kirish, deb baholash maqsadga muvofiq, deb o'ylaymiz (5, 5).

Hofiz, Sa'diy, Jomiy kabi Sharq shoirlari asarlarini asosan ingliz va fransuz tillaridagi tarjimalarda yoki shu tillardan nemis tiliga o'g'irgan Hammer tarjimalarida o'qigan Gyotening butun fikrini sharqona an'alar va islomiy falsafiy qarashlarga chulg'ab oladi. Gyotening islom dinini qabul qilgan degan fikrni quyidagi misra mazmunidan anglashimiz mumkin:

***Allohga itoatdur Islom degan so'z asli,
Islomda yashab hamma, o'lajakmiz islomda*** (3, 204).

Ushbu she'riy xazinani yaratar ekan, Gyote Sharq tarixi, madaniyati, Muhammad alayhissalom hayoti, Hadisu sharif, Qur'oni karimni, Sharq she'riyati uchun asos bo'lgan tasavvuf ta'limotini chuqur o'rganadi. "Devon"ga kirgan she'rlar Hofiz yoki Sa'diy ijod mahsullarining shundoqqina ko'chirmasi emas, balki sharqona qobiqqa o'ralgan, sharqona timsollar, ohanglardan ilhom olib, ularni ijodiy o'zlashtirib bitilgan sof original she'rlardir.

Gyote islom dini payg'ambari hadislaridan tavhidning to'g'ri talqinini angladi. Bu ma'lumot ham Mommsen tomonidan yozilgan maqolada o'z tasdig'ini topgan. Gyote G'arbiy Yevropa ma'rifatparvarligining ildizlarini islom madaniyati asoslaridan kashf qildi (10). Katarina Mommsenning so'zlariga ko'ra, Gyote Muhammad payg'ambarning an'anaviy hadislarini batafsil o'rganib chiqqan, bunda u misogynistik so'zlar bilan salbiy tajribalarni boshdan kechirgan. Quyida ba'zi hadislar keltirilgan: "Men do'zax olovini ko'rdim va uning aholisining ko'pchiligi ayollar edi. Payg'ambarimiz [...] ayollarga murojaat qilib, shunday so'zlarni aytdilar:

"Yig'ilgan ayollarni [...] men ko'plaringizni olovda ko'rdim. Nima uchun? deb so'rashdi, ey Allohning payg'ambari! - Chunki siz la'natlashga arziydigan ish qilasiz Shunday emasmi, ayolning guvohligi erkak guvohligining qiymatining yarmigina? — Nega? Chunki ayol tabiatan ruh va hukmda zaifdir. Men do'zaxga qaradim va uning aholisining ko'pchiligi ayollar ekanini ko'rdim [Xudo aytadi:] "Men erkaklarga xotinlaridan katta balo qoldirmadim". Hamma yomonlik oilada bo'ladi. uyni, ayolning, otni Men [...] do'zax darvozasi oldida turdim va uning aholisining ko'pchiligi ayollar ekanini ko'rdim. Men olov va do'zaxni ko'rdim va ularning ko'pchiligi ayollar [...] va boshqalar edi (12, 253).

Islomda ayollarning mavqei haqidagi ishimizni tadqiq qilar ekanmiz, ayniqsa, Gyote islomdagi ayollarning mavqeini shubha ostiga olgani va uni qattiq tanqid qilgani alohida diqqatimizni tortadi. Bu tanqid, shuningdek, Gyotening "Sharqu G'arb devoni" matnida, masalan, "Sevgi kitobi" va "Jannat kitobi"da o'rin egallagan. "Jannat kitobi"da Gyote hatto ayollarni qadrlash o'rniga, ularni yerdagi hayot davomiyligini ta'minlovchi maxsus vosita sifatida tavsiflashga harakat qiladi (14, 110).

Gyotening "Sharqu G'arb devoni"da hadislarida keltirilgan ayollar obrazini tanqid qilish asosiy maqsad qilib olingan. Tafakkur kitobida, lirik jihatdan "Men"ni talab qiladi: "Ayollarga bo'lg'in mushfiq, mehribon!" (2,1072) Lirik chekinish orqali ayollarning o'rni bilan emas, ayollarga sabr-toqat bilan munosabatda bo'lish uchun Qur'onga ishora qiladi. Bu yerda Gyote aniq ta'kidlab o'tadiki, Qur'onga ishora qilib va hadisni o'rganish orqali Qur'on hadisidan ustun turishini ta'kidlaydi (12, 256) Gyote "Sharqu G'arb devoni"da ayollarning mavqeini yumshatishga harakat qilayotganini aniq ko'rsatib turibdi. Ayollarning qadr-qimmatini oshirish niyatida Gyote tomonidan yozilgan bu "Devon", birinchi navbatda, Zulayho obraziga bog'langan, chunki u Zulayho obrazini ayol sifatida eng yuqori darajaga qo'yadi, bu orqali lirik chekinish Xudo haqidagi tasavvurni ifoda etadi:

Suleika spricht

Der Spiegel sagt mir ich bin schön!
Ihr sagt: zu altern sei auch mein Geschick.
Vor Gott muß alles ewig stehn,
In mir liebt Ihn, für diesen Augenblick (12, 45).

Zulayho so'zi:

Oyinada ayon: go'zalman behad!
"Qaritadi, — deding, seni ham qismat".
Faqat Tangri erur abadiy, ey yor.
Abadiy yoshdirman sen sevgan fursat (6, 190).

Gyotening umuman Sharq va islomga bo'lgan ishtiyoqi tasodif emas, balki u hayotiy tajribasi va ijodiy faoliyati davomida qabul qilgan qaror edi (15, 69) "Demak, Gyoteda bo'rttirish yo'q, ekzotizm yo'q, lekin islom va Sharq madaniyatlari haqida chuqur bilimga ega" (1). Garchi "Muhammad tasviri" faqat bir parcha bo'lib qolsa-da, Gyotening islomga bo'lgan qiziqishi juda yaqqol namoyon bo'lgan. "Prometey va Ganiymed bilan bir qatorda, Muhammad tasviri klassik trilogiyani tashkil qiladi" (15, 67). Gyotening so'nggi poetik ijodining eng yuqori nuqtasi "G'arbu Sharq devon"idir.

Xulosa. Xullas, Gyotening Hofiz ijodiga bo'lgan qiziqishi "Devon"ning yaratilishi uchun hal qiluvchi omil hisoblanadi. Gyote tomonidan yaratilgan "Devon" fors shoiri Hofiz ijodi bilan go'yoki, "egizak asar" edi. Fors shoiri Hofiz XIV asr lirik asarlarning eng muhim va haqiqiy

xazinasini qoldirdi. Tarixiy manbalarda e'tirof etilishicha, bir kuni Hofiz "Devon"ining nemischa tarjimasi Gyote qo'liga tushib qoldi. Gyote bu tarjima asarni o'qib, o'rganar ekan, Hofizning til san'atiga hayrat uyg'ondi. Bu tarjima asarda shoir ko'p o'xshashliklarni aniqlay olgan va uning ruhiy munosabatidan chuqur ilhomlangan. Ayniqsa, u o'z "Devoni"ni yozayotgan davrda, Gyote qayta-qayta ta'kidlaganidek, Hofiz unga ma'naviy ustoz bo'lgan. U orqali nemis shoiri lirik tarzda Sharq va G'arb o'rtasida ko'priq qurishi mumkin edi. Sharq va G'arb o'rtasidagi vositachi rolini o'z zimmasiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdelrahim Said H.: Goethe und der Islam. Berlin, 1969. — 462 p.
2. Birus Hendrik: Johann Wolfgang Goethe West-Östlicher Diwan. Neue, völlig revidierte Ausgabe, Teilband I. Berlin 2010. S. 280
3. Gyote Y.V. Zakovat durdonalari. — T.: Yangi asr avlodi, 2011. — 256 b.
4. Гёте И.В. Западно-восточный диван. — М.: Наука, 1988. — 901 с.
5. Gyote Y.V. G'arbu Sharq devoni / Kirish so'zi A.Saidovniki. — T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashryoti, 2010. — 256 b.
6. Goethe J.W. West-östlicher Divan. Insel Verlag Frankfurt am Main. 1988. — 648 p.
7. Жирмунский В. Гёте в русской литературе, Ленинград: Наука. 1982. — 560 с.
8. Kelek Necla: Goethes Islambild. Herr, mache ihnen Raum in ihrer engen Brust. In Frankfurter Allgemeine. 11.01.2011.
9. Komilov N. Tafakkur karvonlari / Maxsus muharrir: R.Qo'chqor. — T.: Ma'naviyat, 1999. — 204 b.
10. Mommsen Katharina, Goethe und die arabische Welt. Insel, 1988. — 669 p.
11. Mommsen K. Gyote va islom. /M.Umarxo'jaev va I.Jabborov tarjimasi// Jahon adabiyoti. — №1. — 2012.
12. Mommsen Katharina: Goethe und der Islam. Frankfurt am Main 2001. — 527 p.
13. Pater Walter: The Renaissance: Studies in Arts Poetry. Oxfords University Press, USA. 1998. — 174 p.
14. Trunz Erich: Gedichte und Epen II. Goethes Werke Band II. — München: 1981. — 792 p.
15. Fawzi Boubia: Goethes Entwurf einer interkulturellen Kommunikation zwischen Orient und Okzident. Stuttgart 2002, pp. 67-80.
16. Schwarz Hans Günther: Der Orient und die Ästhetik der Moderne. Iudicum Verlag München 2003. — 288 p.
17. Hussein Taha: Goethe and the East. In: Goethe, UNESCO Homage on the Two Hundredth Anniversary of his Birth. Paris 1949. — 165 p.

References

1. Abdelrahim Said H. *Goethe und der Islam* (Goethe and Islam), Berlin, 1969, 462 p.
2. Birus Hendrik, *Johann Wolfgang Goethe. West-Östlicher Diwan* (West-East Divan), Teilband I, Berlin, 2010, 280 p.
3. Gyote Y.V. *Zakovat durdonalari* (Pearls of Wisdom), Tashkent: Yangi asr avlodi, 2011, 256 p.
4. Gyote Y.V. *Zapadno-vostochnyi divan* (West-East Divan), Moscow, 1988, 901 p.

5. Gyote Y.V. *G'arbu Sharq devoni* (West-East Divan), Introduction by A. Saidov), Tashkent: Alisher Navoiy nomidagi Uzbekiston Milliy kutubxonasi nashryoti, 2010, 256 p.
6. Goethe J.W. *West-östlicher Divan* (West-East Divan), Insel Verlag Frankfurt am Main, 1988, 648 p.
7. Zhirmunskii V. *Gete v russkoi literature* (Goethe in Russian literature), Leningrad: Nauka, 1982, 560 p.
8. Kelek Necla: *Goethes Islambild. Herr, mache ihnen Raum in ihrer engen Brust* (Lord, make room for them in their narrow chests), In Frankfurter Allgemeine, 11.01.2011.
9. Komilov N. *Tafakkur karvonlari* (Caravans of thinking), Tashkent: Ma'naviyat, 1999, 204 p.
10. Mommsen Katharina: *Goethe und die arabische Welt* (Goethe and the Arabic world), 1988, 669 p.
11. Mommsen K. *Jahon adabiyoti*, No.1, 2012.
12. Mommsen Katharina, *Goethe und der Islam* (Goethe and Islam), Frankfurt am Main, 2001, 257 p.
13. Pater Walter, *The Renaissance: Studies in Arts Poetry*, Oxford University Press, USA, 1998, 174 p.
14. Trunz Erich, *Gedichte und Epen II* (Poems and Epics II), Goethes Werke Band II. München 1981, 792 p.
15. Fawzi Boubia, *Goethes Entwurf einer interkulturellen Kommunikation zwischen Orient und Okzident* (Goethe's draft of an intercultural communication between Orient and Occident), Stuttgart 2002, pp. 67-80.
16. Schwarz Hans Günther, *Der Orient und die Ästhetik der Moderne* (The Orient and the Aesthetics of Modernity), Iudicum Verlag, München, 2003, 288 p.
17. Hussein Taha, *Goethe, UNESCO Homage on the Two Hundredth Anniversary of his Birth*. Paris 1949, 165 p.